

**International scientific conference**

**MODERN MODIFICATION IN THE  
NATIONAL EDUCATION:  
THEORETICAL AND PRACTICAL  
SCIENCES**

**2018, January**

**volume 2**

#### IV. SOCIAL SCIENCES

<b>Ахмадиев Н.М., Жўраев И.М.</b> Ёшлар тарбияси ва ижтимоий фаоллигини оширишда миллий-маънавий қадриятларнинг ўрни.....	3
<b>Ахмадиев Н.М., Пахритдинов У.М.</b> Глобаллашув даврида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг ўзаро алоқадорлиги.....	9
<b>Ахмадхўжаева Г.М.</b> Ўзбекистонда ўзбек халқ санъатининг ривожланиши.....	13
<b>Ahronqulova M.A., Rahmonqulov A.A.</b> <i>Novob teros vorislari</i> .....	21
<b>Ахунжонова Д.У.</b> Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда санъат ва ҳунармандчиликни ривожланиши.....	25
<b>Ахунова О.Э., Мамажонов Ж., Муйдинов М.Я.</b> Особенности корпоративного управления в акционерных обществах с государственным участием.....	29
<b>Ахунова О.Э., Орифжорова М.</b> Механизм развития предпринимательских структур в условиях модернизации экономических реформ Узбекистана.....	35
<b>Бабаева Х.</b> Инновацион машгулотни моделлаштириш асослари.....	40
<b>Badritdinova M.B.</b> <i>Ta'lim jarayonida o'quvchilar kognitiv uslubini diagnostika qilish metodikalari tavsifi</i> .....	45
<b>Badritdinova M.B.</b> <i>Kognitiv uslub va shaxsning milliy xususiyatlari</i> .....	49
<b>Vazarbaeva A.</b> <i>Modern polyethnic languages and their peculiarities</i> .....	55
<b>Бахромова М.Б.</b> Ўзбекистон, ЮНЕСКО ва буюк унак йўли – халқаро маданият ҳамкорлик омили сифатида.....	58
<b>Бобоева З.</b> Ўқувчиларнинг таълим жараёнида дизайнерлик маҳоратини шакллантириши.....	64
<b>Бобоева З.</b> Ўқитувчининг педагогик - психологик компетентлиги.....	68
<b>Boltaboyev B.S.</b> <i>Farg'ona vodiysi jadidlarning ta'rifparvarlik faoliyati</i> .....	70
<b>Валиева Н.</b> Диний фалсафа ва унинг ўзига хос жиҳатлари ва жамият ҳаётида тутган ўрни.....	74
<b>Валиева Н.</b> Ибтидоий мифологиянинг фалсафий-диний талқини.....	78
<b>Гафуров Ю.И.</b> Электрон ҳукумат ва корхона архитектураси моделлари.....	81
<b>Ганиев Д.</b> Ҳозирги кунда савдо менежментининг моҳияти, мақсад ва вазифалари.....	86
<b>Дадабоева Ж.А.</b> Жабрланувчи жиноят процессида ўз манфаатларини ҳимоя қилувчи шахс сифатида.....	90
<b>Даврон Нурмуҳаммад</b> Ислом тарихида юзага келган илк ихтилофлар: тарихий илдизлари ва замонавий кўринишлари.....	99
<b>Джалалов Ш.В., Рахмонова О.Э.</b> Роль подвижных игр в физической культуре.....	109
<b>Жамалов С.</b> Абдулхай ал-лакнавийнинг “Ал-фавоид ал-бахийя” асарида мовароуннаҳр фақиҳлари.....	111

оширишда ҳам кўзга ташланади. Ўзининг шахсий психологик хусусиятларини билмаслик туфайли ўқитувчи ўз ҳамкасблари тажрибасидан намуна ола бошлайди. Маълумки, ҳар қандай ўқитувчи ўзига хос индивидуалликка эга:

- ўқитувчининг касбий позицияси, психик тараққиётларини ривожлантириш, педагогик маҳоратни ошириш, касбий билимлар доирасини кенгайтириш мақсадида психологик тренинг усулларини қўллаш;

- умумий касбий вазифаларни ҳамкорликда ҳал қилиш мақсадида педагогик вазиятларни таҳлил қилиш;

- ўқитувчи ўзига нисбатан адекват баҳо бериши, ҳамда профессионализмни ошириш мақсадида ўзининг индивидуал услубини ривожлантириши;

- педагогик фаолиятда шахс хусусиятларини ривожлантириш.

Шундай қилиб, психологик компетентликни ривожлантиришдаги асосий роль ўз устида тинмай изланиш, ўзини ўзи англаш, ўз касбий позицияларини ривожлантиришга қаратилган.

#### **Фойдаланилаг адабиётлар:**

1. Муслимов Н. ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. – Т.: «Фан ва технологиялар», 2013. – 128 б.

2. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: “Фан”, 2004. – 126 б

### **FARG’ONA VODIYSI JADIDLARINING MA’RIFATPARVARLIK FAOLIYATI**

**Boltaboyev Baxtiyor Sabirjonovich, o'qituvchi  
Namangan Davlat Universiteti,**

**Resume:** In this article, the movement of jadidism in fergana valley, the scholars and representatives of Fergana jadidism, schools that have been established in the area, the magazine and newspapers organized by jadids, the political and educational views of jadid members and their striving to independence are conveyed.

**Key words:** scholars of fergana jadid, jadid schools, the movement of jadidism, magazines and papers of fergana jadid.

Farg’ona jadidlari ham o’lkadagi boshqa taraqqiyparvarlar qatori o’zlarining dastlabki faoliyatlarini ma’rifatparvarlikdan boshlagan edilar. Vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka yetaklashdek muqaddas g’oya eng ilg’or qarashli jadid ziyolilarining fikrida bo’lgani holda, mavjud sharoitda uni amalga oshirish mushkul edi. Unga faqat tinimsiz ma’rifiy-siyosiy faoliyat orqaligina erishish

mumkin edi. Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yetuk mutaxasislarsiz tasavvur eta olmaganlar. Shu maqsad yo'lida o'tgan asr oxirlarida jadidlar butun Turkistonda, xususan Farg'ona vodiysida ham yangi usul maktablari ochish zarurligini angladilar va ularni tashkil etish uchun harakat boshladilar.

Shunday maktablarning tashkil topishiga bir tomondan chor ma'murlari, ikkinchi tomondan ijtimoiy voqelikka o'zining tor dunyoqarashi nuqtai nazardan baho beruvchi kishilar to'sqinlik qildilar.

Turkiston xalqlari turmushidagi har bir yangilik mustamlakachi ma'murlar nazaridan chetda qolmagan, albatta. XX asr bo'sag'asida o'lkamizda yangi usul maktablarining paydo bo'lishi ham ularni g'oyatda tashvishga sola boshladi.

O'sha davrda chop etilgan rus tilidagi gazeta va jurnallarda mahalliy xalqlarning maorif tizimi, yangi va eski maktablar masalalarini yoritishga keng o'rin berilgan. Turkiston bosib olingach, bu yerda mustamlakachilar o'zlarining rus-tuzem maktablarini ocha boshladilar. Xalq maorifi sohasida hukumat rus-tuzem maktablari bilan yonma-yon, yangi usul maktablarining paydo bo'lishi sira ko'z yumib bo'lmaydigan hol ekanligi, bu maktablar zamon talablari asosida kelib chiqqanligini "Туркестанское ведомости" gazetasining 1909-yil 1-sonida ta'kidlab o'tiladi.

Eski usul maktablari bolalarga asosan diniy tarbiya berish bilan cheklanganligi, zamonaviy ilm-fanlarning o'qitilishi bu maktablar uchun yot hodisa ekanligini va shu sababli ham bu maktablar mustamlakachilar uchun unchalik xavf tug'dirmasligini chor ma'murlari yaxshi tushunib yetgan holda, yangi usul maktablariga jiddiy e'tibor qarata boshladilar. Shu sababli ham Turkistonda maktab ishlarini asosiy vazifalardan biri bo'lishi kerak deb bildilar: "Dars berish uslublariga ko'ra, dasturlar bo'yicha va butun tuzilishi bo'yicha bu yangi maktablar hayot talablariga nisbatan javob beradi...Bu yangi usul maktablari asosiy e'tiborga loyiqdir...Ular xalq turmushiga kira borib, yerlilarni qo'zg'altiradi va ularni qoloqlikdan chiqaradi".

Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari bosh nazoratchisi O. Kerenskiy 1909-yil 12-yanvarda va 1910-yil 27-yanvarda Farg'ona viloyati harbiy gubernatoridan yangi usul maktablari, ularning ochilish sabablari, qachon va kimlar tomonidan ochilgani haqida ma'lumot berishni so'raydi<sup>7</sup>. Farg'ona viloyat o'quv yurtlari inspektori F. Egorov Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari inspektoriga bunday maktablar dastlab ruxsatsiz va yashirin suratda ochilganligi haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga u bu maktablarning yopilishi yoki faoliyatining ta'qiqlanishi mahalliy aholi orasida keskin norozilikning kelib chiqishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Yangi usul maktablarining yopish uchun qonuniy asos bo'lmaganligi sababli, ular uchun alohida dastur va qonun ishlab chiqishni taklif qiladi.

Eng dastlabki ochilgan maktablar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

<sup>7</sup> Ражабов Қ. Жади́длар-истиқлолчилик ҳаракатининг ғоявий раҳнамолари. Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жади́длар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар. – Т.: Эълдинур, 1998. – Б. 15.

- 1) Qo'qon uezdida Ahmadjon Qori maktabi. 1892-yilda ochilgan<sup>8</sup>.
- 2) Mir Ayyubboy maktabi (Qo'qon) 1893-yil ochilgan bo'lib, 100 o'quvchisi bo'lgan.
- 3) Usta Bakovul (Qo'qon) 1899-yil ochilgan, 115 o'quvchi tahsil olgan;
- 4) Hamboboy masjidi qoshida 1899-yil ochilgan, 25 o'quvchi o'qitilgan;
- 5) Zand-Xasan mahallasida (Andijon) 1900-yil ochilgan, 35 o'quvchi ta'lim olgan maktablarni ko'rsatish mumkin<sup>9</sup>.

Ayrim adabiyotlarda Farg'ona viloyatidagi dastlabki yangi usul maktabi sifatida Ishoqxon Junaydulloxonxo'ja o'g'li (Ibrat)ning maktabi eslatiladi<sup>10</sup>. Ishoqxon Ibrat (186 -1937) 1878 - 1886 yillari Qo'qonning Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida ta'lim oladi. O'sha kezlari u Bog'chasaroyda nashr etiladigan "Tarjimon" gazetasi sonlari bilan ham muntazam tanishib turgan. Ushbu nashr orqali u yangi usul maktabining afzalliklari, ta'lim usullari, darsxonalarining tuzilishi va darsliklari haqida ma'lumotlar olib borgan. Madrasani tamomlagach, 1886-yil To'raqo'rg'onga qaytadi va tovush usuliga asoslangan yangi maktab ochadi. Lekin maktab tez orada yopib qo'yiladi. U 1907-yilga kelib, ikkinchi bor maktab ochadi. Uning maktabida Yevropa tillaridan ham darslar o'tilgan<sup>11</sup>.

Yangi usuldagi maktab xonalarining ichki tuzilishi, eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik xarita va o'qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan. Maktablarda bolalar 2-3 yil o'qishni davom ettirganlar. Usuli savtiya maktablari eski usul maktablaridan ta'limning sifati bilan ham farq qilgan. Bu e'tiroflar o'sha davr matbuotida ham o'z aksini topgan. Masalan, Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo'lib, 1 chi sinfda bolalarga o'qish va yozish, 2 chi sinfda tajvid, hisob, 3 chi sinfda esa ibodati islomiya, sarfi turkiy o'rgatilgan. 1900- yil may oyida Otabek qozi ishtirokida ushbu maktab o'quvchilaridan imtihon olingan. o'quvchilar imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirganlar. Imtihon ishtirokchilaridan Tojiddinbek Otabekov yozganidek: "...Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma'lum va ravshan bo'ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski zamon maktablarini bir joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsak ham to'g'ridur...".

Jadid maktablarining soni ortib borgan sari, ulardagi ta'lim tizimi ham takomillashib borgan. Imtihonlar keng xalq ommasi ko'z o'ngida, qishloq yoki shaharlarning ilg'or ziyolilari davrasida "Imtihon majlisi" nomi bilan o'tkazilgan. Bunday holatlarda yangi usul maktablari o'zining afzallik tomonlarini to'liq namoyish eta olgan. Aksariyat omma imtihondan mamnun bo'lgan holda tarqalganlar. Shunday imtihon majlislaridan biri Qo'qon shahrining Xonaqoh

<sup>8</sup> Шамсутдинов Р. Жадидчилик хакикат ва уйдирма // Мулоқот. – 1991. – № 11. – Б. 21-22.

<sup>9</sup> Алимова Д. Жадидчилик мустақиллик даври тарихчиси талқинида. Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар. – Т.: Эльдинур, 1998. – Б. 15.

<sup>10</sup> Долимов У. Ишқоқхон Ибрат. – Т.: Шарқ, 1994. – Б. 11; Носиров О., Маъмуров М. Ўзбек адабиётининг муҳим саналари. – Наманган: Наманган Давлат Университети, 1993. – Б.124; Педагогика тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 280.

<sup>11</sup> Носиров О., Маъмуров М. Ўзбек адабиётининг муҳим саналари. – Наманган: Наманган Давлат Университети, 1993. – Б. 124.

mahallasidagi “Maktabi Mahmudiy” da bo’lib o’tadi. O’quvchilar kuzatuvchilar ko’z o’ngida o’qish, yozish, hisob, e’tiqodot amaliyotidan yaxshigina imtihon topshirganlar. Shahrixonda ham shunday imtihon majlisi muallim Xo’jaxon maktabida bo’lib o’tadi. Majlisga Shahrixonning qozi, mingboshi va ulamolari taklif etiladi. Shogirdlardan birin-ketin din ilmi, tarix, tabiiy Fanlardan imtihon olinadi. Barcha shogirdlar imtihonni kutilgandan ham a’loga topshiradilar. Buni ko’rgan ahli majlisning ko’plari o’zlarini xursandchilikdan to’xtata olmay yig’laganlar.

Ilg’or fikrli kishilarning sayi-harakatlari bilan ham ko’plab yangi maktablar ochilgan. Ba’zan muallimlik uchun chetdan kishilar taklif etilgan. Masalan, O’sh uezdiga qarashli Qurshob qishlog’ida qishloq boshqaruvchisi Erali Mingboshi 1914-yil yanvar oyida yangi usul maktabi ochib, Toshkentdan G’ulom Zafariyni muallimlik uchun olib keladi.

Farg’ona viloyat o’quv yurtlari inspektori F. Egorovning 1910-yil 13-fevralda Farg’ona viloyat boshqarmasiga yuborgan ro’yxatida ko’rsatilishicha, shu davrda viloyatning 22 ta aholi punktidagi usuli jadid maktablari qayd etib o’tilgan. Bu maktablarda 15 nafardan 120 nafargacha bolalar ta’lim olishgan.

Jadid maktablarning butun Farg’ona vodiysi bo’ylab keng yoyilishi musulmonlarning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ijobiy ta’sir ko’rsatdi. Bu esa chor ma’murlarini yangi usul maktablari ustidan nazoratni kuchaytirishga chorladi. Jadidlar o’lkadagi matbuot sahifalarida mazkur maktablarning mohiyati, maqsadi, taraqqiyot yo’lidagi ahamiyati haqida ilmiy-nazariy, publitsistik maqolalar yozib jadidchilikni targ’ib etdilar.

Xullas, maorif sohasida musulmonlar diniy maktabi ko’p o’rinni ishg’ol qilsada va amalda u maktab sohasida yuz bergan progressiv o’zgarishlar Farg’ona vodiysi xalqi madaniy hayotida muhim faktor bo’ldi. Bu, Turkiston xalqlari orasida dunyoviy bilimlarni o’rganish rivojlana boshlaganligini bildirar edi.

Shunday qilib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Farg’ona vodiysi jadidlarining ma’rifatparvarlik faoliyatlarini yuqori baholash mumkin. Bular Farg’ona vodiysida jadid matbuoti va adabiyotini yuzaga kelishi, yangi usul maktablari va ular faoliyati, jadidlarning jamiyat islohiga oid qarashlari hamda Qo’qon Muxtoriyatini tashkil etilishida yaqqol ko’zga tashlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ахмад Заки Валидий. Хотиралар // Шарқ Юлдузи. – 1993. – №7-8-9. – Б. 164-170.
2. Алимова Д. Жадидчилик мустақиллик даври тарихчиси талкинида. Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар. – Т.: Эльдинур, 1998.
3. Баратов М. Ўзбекистонда маърифат учун кураш тарихидан. – Т.: Фан, 1961.
4. Дадабоев Р. Наманган шаҳар маорифи тарихидан... // Тарих тилга кирганда... Даврий тўплам – № 2. – Наманган, 2008.
5. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Т.: Шарқ, 1994.

6. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Т.: Университет, 2006.
7. Ёқубов Б. Фарғона водийсида Совет хокимиятини ўрнатиш учун кураш. – Т.: Ўзбекистон, 1954.
8. Зиёев Ҳ. Жадидлар ҳаракатининг сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий замини (XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнинг бошлари). Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Т.: Университет, 1999.